

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF LAW RESEARCH  
SPECIAL ISSUE-1



# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№SI-1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-SI-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'affor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Artur Gambaryan**  
yuridik fanlar doktori, professor (Armaniston)  
**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)  
**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Egamberdiyev Eminjon**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxanovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Skripnikov Nikolay Kuzmich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salayev Nodirbek Saparbayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Taxirov Farxod**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)


**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirazov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govverjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

<b>1. Жолдасов Айдос Фархадович</b> ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИНИШНИНГ ИЖТИМОИЙ ЗАРУРИЯТИ.....	5
<b>2. Саидбоева Махбуба Рахмонназаровна</b> ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ УЧАСТИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ПАРТИИ В ИЗБИРАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ В УЗБЕКИСТАНЕ И ТАДЖИКИСТАНЕ.....	17
<b>3. Искендеров Полат Конисбаевич</b> АВТОНОМ (ҲАЙДОВЧИСИЗ) ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ТОМОНИДАН ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ ҚОПЛАШНИНГ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ.....	26
<b>4. Мейлиева Наргис Зульфиковна</b> ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ: ЎЗБЕКИСТОН ВА ПОРТУГАЛИЯ НОТАРИАТИ.....	35
<b>5. Сайдивалиева Хуршида Ходжиақбаровна</b> ОТА-ОНАЛИК ҲУҚУҚЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МУНОСАБАТЛАРИНИ КЕЛИШУВ ОРҚАЛИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ВА АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	42
<b>6. Vozorov Jasurbek Saydulla o'g'li</b> SHAXSLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINING PROKUROR TOMONIDAN HIMOYA QILINISHI.....	50
<b>7. Акбаралиева Мухайё Караматулло кизи</b> ПОХИЩЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА И ЗАХВАТ ЗАЛОЖНИКА: РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ СОСТАВАМИ.....	57
<b>8. Алиев Асилбек Кадиорович</b> ВОПРОСЫ КВАЛИФИКАЦИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА.....	64
<b>9. Allanova Azizaxon Avazxonovna</b> DAVLAT CHEGARASINI KESIB O'TISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI AMALGA OSHIRISHDA HUDUD MASALASI.....	71
<b>10. Алтиев Раззок Саидович</b> ЖИНОЯТЛАРНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ, ТУРЛАРИ ВА БОСҚИЧЛАРИ.....	80
<b>11. Бобокулов Хамид Махмадутович</b> ЕВРОПА ИТТИФОҚИДА ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИККА ҚАРШИ КУРАШ МАСАЛАЛАРИ.....	89
<b>12. Otaboyev Bobur Ibrat o'g'li</b> TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISH JINOYATINING OBYEKTI.....	96




**Otaboyev Bobur Ibrat o‘g‘li,**

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya  
va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasida katta o‘qituvchisi

E-mail: otabayevbobur@gmail.com

## TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISH JINOYATINING OBYEKTI

**For citation:** Otaboev Bobur Ibrat ugli. OBJECT OF THE CRIME OF FINANCING TERRORISM. Journal of Law Research. 2025, Special issue 1, pp. 96-101

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14679747>

### ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada terrorizmni moliyalashtirish obyekti har tomonlama jinoyat-huquqiy tahlil qilinib, uning turlari va xususiyatlariga e‘tibor qaratilgan. Jinoyat obyekti, shu jumladan uning turlari va mazkur jinoyat predmeti ko‘rib chiqiladi. Kriptoalyutalar, yashirin operatsiyalar va xalqaro moliyaviy sxemalardan foydalanish kabi terrorizmni moliyalashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Muallif jinoyat obyektini jinoyat tarkibining asosiy elementlaridan biri sifatida atroflicha o‘rganadi va bu borada tegishli xulosalar chiqaradi

**Kalit so‘zlar:** terrorizm, moliyalashtirish, jinoyat predmeti, obyekt, obyekt turlari, kriptoaktivlar.

**Отабоев Бобур Ибраг угли,**

Старший преподаватель Кафедры уголовного права, криминологии и борьбы  
с коррупцией Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: otabayevbobur@gmail.com

## ОБЪЕКТ ПРЕСТУПЛЕНИЯ ФИНАНСИРОВАНИЯ ТЕРРОРИЗМА

### АННОТАЦИЯ

В статье проводится всесторонний уголовно-правовой анализ объекта финансирования терроризма, уделяя внимание его видам и особенностям. Рассматриваются объект преступления, включая его виды и предмет этого преступления. Особый акцент сделан предмет финансирования терроризма, таких как использование криптовалют, теневых операций и международных финансовых схем. Автор подробно изучает объект преступления как один из главных элементов состава преступления и делает соответствующие суждения по этому поводу.

**Ключевые слова:** терроризм, финансирование, предмет преступления, объект, виды объектов, криптоактивы.

**Otaboev Bobur Ibrat ugli,**

Senior Lecturer of the Department of Criminal Law, Criminology  
and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law

## OBJECT OF THE CRIME OF FINANCING TERRORISM

### ANNOTATION

The article provides a comprehensive criminal-legal analysis of the object of terrorist financing, paying attention to its types and features. The object of the crime is considered, including its types and the subject of this crime. Particular emphasis is placed on the subject of terrorist financing, such as the use of cryptocurrencies, shadow transactions and international financial schemes. The author studies in detail the object of the crime as one of the main elements of the crime and makes appropriate judgments on this matter

**Keywords:** terrorism, financing, subject of crime, object, types of objects, crypto assets.

Hech qanday qilmish o‘z-o‘zidan jinoyat deb topilmaydi, balki jinoyat qonunida belgilangan jinoyat belgilarini o‘zida mujassam etgan taqdirdagina u jinoyat sifatida malakalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 14-moddasiga muvofiq Jinoyat Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Mazkur ta’rifga asosan jinoyatning quyidagi belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin: a) qilmishning ijtimoiy xavfliligi, b) qilmishning huquqqa xilofligi, c) qilmishda aybning mavjudligi, d) qilmishning jazoga sazovorligi.

Yuqoridagi belgilar asosida terrorizmni moliyalashtirish jinoyatini tahlil qiladigan bo‘lsak:

**Terrorizmni moliyalashtirishning ijtimoiy xavfliligi** bu uning JK bilan bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazishidir. Chunki, JK 14-moddasi 2-qismiga muvofiq Jinoyat kodeksi bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi. Terrorizmni moliyalashtirish bilvosita JK 2-moddasida Jinoyat kodeksi bilan qo‘riqlashi belgilangan tinchlik, insoniyat xavfsizligi kabi obyektlarga (ijtimoiy munosabatlar) tahdid qiladi, shu bois ijtimoiy xavfli xususiyatga ega hisoblanadi.

**Terrorizmni moliyalashtirishning huquqqa xilofligini** Jinoyat kodeksi 155<sup>3</sup>-moddasida va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarida ko‘rishimiz mumkin. Huquqqa xiloflik jinoiy qilmish orqali huquq normalarini buzilishini va unga jazo qo‘llash tahdidi borligini ifodalaydi. JK 155<sup>3</sup>-moddasi terrorizmni moliyalashtirish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutgan holda uni sodir etmaslik majburiyatini yuklaydi. Shu bilan birga “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi Qonunida ham terrorizmni moliyalashtirish jinoiy, ya’ni taqiqlangan qilmish ekanligi belgilanib, unga qarshi kurashish chorarlari nazarda tutilgan.

**Terrorizmni moliyalashtirishda aybning mavjudligi.** Ayb jinoiy-huquqiy adbiyotlarda shaxsning o‘zi sodir etgan qilmishiga nisbatan ruhiy munosabati sifatida keltiriladi. Terrorizmni moliyalashtirish qaysi ayb shaklida sodir etilishi jinoiy-huquqiy oqibat keltirib chiqarishi Jinoyat qonunida to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilmagan. JK 20-moddasida aybning ikkita shakli: qasd va ehtiyotsizlik nazarda tutilgan. Rustambayev M.X. fikricha terrorizmni moliyalashtirish faqat to‘g‘ri qasddan sodir etiladi. Ammo, jinoyat qonunida nafaqat ushbu jinoyat uchun balki qolgan jinoyatlar uchun ham ayb shakli bevosita belgilanmagan va bu qilmishni huquqiy jihatdan to‘g‘ri malakalashda muammolar keltirib chiqaradi.

**Terrorizmni moliyalashtirishning jazoga sazovorligi.** Rustambayev M.X. fikriga asosan “jinoyatning jazoga sazovorligi mustaqil belgisi sifatida quyidagi ikkita jihat bilan xarakterlanadi: 1) ijtimoiy xavfli qilmish jazo qo‘llash tahdidi bilan qonun chiqaruvchi tomonidan taqiqlanadi; 2) ushbu taqiqni buzgan shaxs qoidaga ko‘ra jazoga tortiladi”.

JK 155<sup>3</sup>-moddasi 1-qism sanksiyasida terrorizmni moliyalashtirish jinoyati uchun sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, 2-qismi sanksiyasiga ko‘ra ushbu jinoyatni

og'irlashtiruvchi holatda sodir etganlik uchun o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

Endi, terrorizmni moliyalashtirishni jinoyat tarkibining turlariga ko'ra tahlil qilamiz.

Ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra terrorizmni moliyalashtirish asosiy va og'irlashtiruvchi tarkibni qamrab oladi. JK 155<sup>3</sup>-modda 1-qismida nazarda tutilgan qilmishlar asosiy tarkibni, 2-qismidagi qilmishlar og'irlashtiruvchi tarkibni tashkil etadi.

Tasniflash usuliga ko'ra terrorizmni moliyalashtirish murakkab tarkibli jinoyat hisoblanadi. Chunki, u ko'p obyektli (tinchlik va insoniyat xavfsizligi, inson hayoti va sog'ligi, davlat iqtisodiy tizimi) jinoyat hisoblanadi.

Terrorizmni moliyalashtirish tuzilishining xususiyatiga ko'ra formal tarkibli jinoyat hisoblanadi. Ya'ni, shaxs JK 155<sup>3</sup>-moddasida nazarda tutilgan qilmishlardan birini sodir etishi bilan jinoyat tugallangan hisoblanadi va moddiy oqibat kelib chiqishini talab qilmaydi. Chunki, formal tarkibli jinoyatlarda faktik oqibatlar kelib chiqqanligiga qaramay qilmish sodir etilgan vaqt jinoyat tamom bo'lgan vaqt deb hisoblanadi[1].

Yuqorida keltirilganlar terrorizmni moliyalashtirish jinoyatining umumiy yuridik tahlil edi. Endi ushbu jinoyatning maxsus yuridik tahliliga, ya'ni uni obyektiv va subyektiv belgilariga ko'ra tahlil qilishga o'tamiz.

Terrorizmni moliyalashtirish jinoyatining obyektiv belgilari uning obyeksi va obyektiv tomoni kiradi.

### **Terrorizmni moliyalashtirish jinoyatining obyeksi**

**Jinoyat obyeksi** deganda jinoiy tajovuz qaratilgan va ana shu tajovuz orqali unga zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy munosabat tushuniladi[1]. Tajovuz qilinadigan ijtimoiy munosabat jinoyat obyektining zaruriy belgisi hisoblanadi. Bundan tashqari jinoyat obyektining fakultativ belgisi – jinoyat predemti ham mavjud.

Terrorizmni moliyalashtirishning bevosita obyeksi ikki obyektli shaklga ega bo'lib, bevosita asosiy va qo'shimcha obyektlarni o'z ichiga oladi[2]. Yuqorida tahlil qilganimizdek, terrorizmni moliyalashtirish obyeksi tinchlik va insoniyat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ijtimoiy munosabatlar hamda O'zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligi hisoblanadi. Terrorizmni moliyalashtirishning bevosita obyeksi bu jamoat va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardir[3]. Terrorizmni moliyalashtirish orqali aybdor nafaqat jamoat, balki iqtisodiy xavfsizlikka ham tajovuz qilganligi bois, terrorizmni moliyalashtirish jinoyatining bevosita asosiy obyeksi sifatida **jamoat xavfsizligini**, bevosita qo'shimcha obyeksi esa, **iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarni** ko'rsatishimiz mumkin.

Terrorizmni moliyalashtirishning jamoat xavfsizligiga tahdidi 2 ta holatda namoyon bo'ladi: Birinchidan, terrorizmni moliyalashtirish terrorchilik tashkilotlariga terroristik harakatlarni rejalashtirish va amalga oshirishga imkon beish orqali bilvosita tinch aholi, huquq-tartibot idoralari xodimlarining hayotini va sog'ligini va shuningdek jamoat tartibini xavf ostiga qo'yadi. Ikkinchidan, terrorizmni moliyalashtirish orqali ta'minlangan moliyaviy resurslardan terroristik tashkilotlar yangi terroristlarni yollash va mavjudlarini radikallashtirish uchun foydalanadi.

Terrorizmni moliyalashtirishning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarga jinoiy tahdidi borasida J.A.Ibrohimov quyidagi fikrlarini bildirgan: Terrorizmni moliyalashtirish qilmishni sodir etgan holda aybdor qonuniy va noqonuniy ravishda topilgan moliyaviy vositalardan jinoiy faoliyatni moliyalashtirishga yo'naltirgan holda foydalanadi, shu bilan ushbu mablag'ni qonuniy iqtisodiy muomaladan olib chiqadi hamda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini xavf ostiga qo'yadi[3].

Terrorizmni moliyalashtirish qo'shimcha obyekt sifatida terrorizmni moliyalashtirish fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mulkiy manfaatlari, davlatning mulkiy xavfsizligini ta'minlash borasidagi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi[8]. Moliyalashtirilgan terroristik harakatlar odatda ommaviy ravishda tinch fuqarolarning o'limi, og'ir tan jarohat olishiga, shuningdek ommaviy va xususiy binolar va boshqa mol-mulkning shikastlanishi yoxud butkul vayron bo'lishiga olib keladi. Ya'ni, terrorizmni moliyalashtirish bilvosita fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mulkiy manfaatlariga tajovuz qiladi.

Yuqoridagilarga asosan, o'ylashimizcha terrorizmni moliyalashtirish obyektiga O'zbekiston Respublikasining davlatning suvereniteti, xavfsizligi, hududiy yaxlitligi, xalqaro munosabatlarni ham kiritishimiz mumkin. JK 155-moddasiga ko'ra terrorizm xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazishga qaratilgan bo'ladi. Yuqoridagi maqsadlarni ko'zlagan terroristik harakatlari yoki terrorchilik tashkilotlarini moliyalashtirish harakatlari ham bilvosita ushbu ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi. Ammo, barcha terrorchilik harakatlari ham mazkur maqsadlarni ko'zlamasligi mumkin. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasining davlatning suvereniteti, xavfsizligi, hududiy yaxlitligi, xalqaro munosabatlar terrorizmni moliyalashtirishning fakultativ obyekti hisoblanadi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Yuqoridagilarga asosan xulosa qiladigan bo'lsak, terrorizmni moliyalashtirish jinoyatining obyektini moliyalashtirilayotgan terrorchilik harakatining obyekti, moliyalashtirilgan terrorchilik tashkiloti yoki terroristning jinoiy maqsadlari nimaga qaratilganligiga qarab aniqlashimiz to'g'ri bo'ladi.

**Terrorizmni moliyalashtirish jinoyatining predmeti** ancha keng qamrovlidir. Jinoyat huquqi adabiyotlarda jinoyat predmetiga turli xil ta'riflar berilgan. Rustambayev fikriga ko'ra "jinoyat obyektiga nisbatan tajovuz qilishda aybdor shaxs to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadigan, u tufayli yoki uning uchun jinoyat sodir qilingan obyektiv olamdagi jonli yoki jonsiz moddiy narsalar jinoyat predmeti hisoblanadi". JK 155<sup>3</sup>-moddasiga asosan terrorizmni moliyalashtirishda berilgan va to'plangan **mablag'-vositalar, resurslar** hamda ko'rsatiladigan **xizmatlar** terrorizmni moliyalashtirish jinoyati predmeti hisoblanadi[5].

Mazkur tushunchalarning yuridik tahlilidan avval ularning izohli mazmuniga to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mablag' – (arabcha “naqdina”, “tayyor pul”) biror narsani yaratish, qurish, o'tkazish uchun sarflanadigan, ishlatiladigan ma'lum miqdordagi pul va boshqa narsalar. “Resurs” – (fransuzcha “yordamchi vosita”, “usul”, “pul mablag'i”) inson turmush sharoitini yanada yaxshilash uchun zarur bo'lgan narsalarning mavjud zaxirasi. Vosita – (arabcha “chora”, “tadbir”, “usul”) biror maqsadga erishish yoki biron ishni amalga oshirish uchun dastak bo'lib xizmat qiladigan narsa, qurol. “Xizmat” – “biror ish yoki mehnat bilan shug'ullanish; biror ishni bajarish; ish, mehnat; yumush qilmoq; muayyan vazifani bajarmoq, kerak bo'lmoq”.

Endi mazkur tushunchalarning huquqiy tahliliga o'tamiz.

**Mablag'lar** tushunchasi nomidan ham ma'lumki pulni nazarda tutadi [6].

**Resurslarga** Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida BMT Konvensiyasining 1-moddasida inglizcha “funds” sifatida nomlanib, unga quyidagi ta'rif keltirilgan [8]:

“Resurslar” qay asosda qo'lga kiritilishidan qati'y nazar (qonuniy yoxud noqonuniy), moddiy yoki nomoddiy, shu jumladan virtual, ko'char yoki ko'chmas bo'lgan barcha turdagi aktivlarni o'z ichiga oladi. Bank hisobvaraqlaridagi pullar, sayohat cheklari, qimmatli qog'ozlar, aksiyalar, obligatsiyalar va shunday aktivlarga egalik yoki manfaatdorlikni tasdiqlovchi boshqa moliyaviy vositalar ham resurslarga kiradi. FATF tomonidan resurslarga neft va boshqa tabiiy boyliklar ham kiritilgan. Chunki ISHID (Iroq va Shom Islom Davlati) bosib olingan hududlaridan tortib olingan neft va boshqa tabiiy resurslardan terrorizmni moliyalashtirishda foydalangan.

FATF tavsiyalariga asosan terrorizmni moliyalashtirish jinoyatida iqtisodiy resurslar qonuniy yoki noqonuniy manbalardan (ya'ni, qonuniy yoki noqonuniy yo'l bilan olingan) kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha mablag'lar yoki boshqa aktivlarni qamrab olishi kerak[5]. Qonuniy mablag'larga mehnat faoliyati, ijtimoiy yordam, oilaviy qo'llab-quvvatlash va kreditlar kiradi[10]. Mulk noqonuniy egallanishiga mol-mulkning talon-taroj orqali qo'lga kiritilishi, pora sifatida olinishi, soliqdan qochish ortidan ortilishi va shunga o'xshash huquqqa xilof yo'llar bilan qo'lga kiritilishini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Moddiy va nomoddiy resurslar, shu jumladan virtual aktivlar. Moddiy mulk yoki moddiy jismlar deganda moddiy xususiyatga, shakl-shamoilga ega bo'lgan jismlar tushuniladi. Nomoddiy mulklarga moddiy xususiyat, shaklga ega bo'lmagan narsalar kiradi. Virtual mulklar nomoddiy

mulklarning bir turi bo‘lib, virtual olamda, jumladan Jahon internet tarmog‘ida yuzaga keladi, muomalada bo‘ladi. Ushbu mulk turidan moliyaviy o‘tkazmalarda tobora ko‘proq foydalanilayotganligi, mavjud qonunchilik tomonidan yetarlicha tartibga solinmaganligi ularni terroristik maqsadlarga foydalanishda qulay vositaga aylantiradi. Virtual aktivlarga raqamli valyutalar (Bitcoin, Ethereum va b.q.), virtual tovarlar (video o‘yinlarda sotib olish, sotish mumkin bo‘lgan narsalar yoki aktivlar) va raqamli qimmatli qog‘ozlarni (aksiyalar, obligatsiyalar yoki derivativlar kabi an’anaviy moliyaviy vositalarning tokenlashtirilgan ko‘rinishi) kiritishimiz mumkin[9].

**Vositalar.** Jinoyat huquqi nazariyasida “vositalar” tushunchasining mazmuni, albatta, bugungi kunda mavjud bo‘lgan pul vositalariga nisbatan ancha kengdir[6]. Bularga moddiy bahoga ega boshqa yordam ko‘rsatishni, xususan, oziq-ovqat, yashash uchun joy, kiyim-kechak, asosiy ehtiyojlar, dori-darmonlar, avtomobillar, aloqa vositalari va boshqalar ham kiritish lozim. Vositalar ham mablag‘larga o‘xshab iqtisodiy qiymatga ega bo‘ladi. Ammo, vositalar mablag‘lardan farqli jihati likvidlik darajasi past hisoblanadi. Mablag‘lar orqali istalgan vositani qo‘lga kiritish mumkin, lekin vositalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqa vositalarni yoki mablag‘larni sotib olib bo‘lmaydi.

J.A.Ibrohimov fikriga ko‘ra resurslar to‘lig‘ligicha vositalar tarkibiga kiradi. Bizning fikrimizcha resurslar mazmunan mablag‘lar va vositalardan kengroq tushuncha bo‘lib, o‘z tarkibiga har ikkalasini ham qaram oladi [3].

**Xizmatlar.** JK 155<sup>3</sup>-moddasi dispozitsiyasida mablag‘-vositalarni, resurslarni berish va yig‘ishdan tashqari terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat ham kriminalizatsiya qilingan.

M.X.Rustambayev “terrorchilarga boshqa xizmatlar ko‘rsatish deganda ularni jazodan yashirish, aloqa vositalari bilan ta‘minlash, ularga transport, yashash uchun joy taqdim etishlarni tushunish mumkinligi” haqida fikrga kelgan. Ammo mazkur harakatlar shaklan jinoyat sodir etishda ishtirok etishning yordamchilik turiga o‘xshab ketadi. JK 28-modda 5-qismiga muvofiq “jinoyat sodir etilishiga o‘z maslahatlari, ko‘rsatmalari bilan, **vositalar berish** yoki to‘siqlarni yo‘qotish bilan ko‘maklashgan, shuningdek **jinoyatchini**, jinoyat sodir etish quroli, izlari va vositalarini yoxud jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan narsalarni **yashirishga**, shuningdek bunday narsalarni olish va o‘tkazish to‘g‘risida oldindan va‘da bergan shaxs yordamchi deb topiladi”[1]. Jinoyat sodir etish uchun vositalarni berish jinoyatda ishtirokchilik hisoblanadi. JK 28-moddasi mazmuniga asosan terroristik harakatni sodir etayotgan terroristga yoki terrorchilik tashkilotiga aloqa, transport vositalarini berish terrorizmni moliyalashtirish sifatida emas, balki terrorizm jinoyatini sodir etishda ishtirokchilik deb malakalanishi lozim. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: Xo‘sh, unda qonunshunos nima uchun ushbu xizmatlarni alohida jinoyat tarkibi sifatida malakalash lozim deb topgan? Bunga bir qancha fikrlarni keltirish mumkin. Birinchidan, terroristni yashirgan shaxsning harakatlarini terrorizm jinoyatini sodir etishda yordamchilik deb kvalifikatsiya qilishimiz uchun shaxs ushbu harakatlarni sodir etishga oldindan va‘da bergan bo‘lishi lozim. Ammo, shaxs terrorchilarga oldindan va‘da bermasdan uni yashirishi mumkin. Natijada va‘daning mavjud emasligi faktori ularning jinoyatda ishtirokchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilishini istisno etadi. Lekin, bu huquqbuzarlarni butkul jinoiy javobgarlik tahdididan xolos qilmaydi. Chunki, JK 31-moddasi 2-qismiga ko‘ra jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli va vositalarini, jinoyat izlarini yoki jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan narsalarni oldindan va‘da bermagan holda yashirganlik ushbu Kodeksning 241-moddasida nazarda tutilgan hollarda javobgarlikka sabab bo‘ladi. JK 241-moddasi 2-qismi dispozitsiyaga asosan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlarni oldindan va‘da bermasdan yashirish jinoiy javobgarlik keltirib chiqaradi. Terrorizm og‘ir jinoyat (8-10-yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan) bo‘lganligi sababli terroristni yashirgan shaxs JK 241-moddasiga asosan baribir jazoga tortiladi. Ikkinchidan, bizning fikrimizcha, boshqa xizmatlar faqat terrorchilik tashkilotlariga yoki terroristlarga emas, balki yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan shaxslarga ma‘lum bir xizmatlar ko‘rsatishni qamrab oladi. JK 155<sup>3</sup>-modda dispozitsiyasiga yaxshilab e‘tibor berilsa, moddaning “...boshqa xizmatlar ko‘rsatish...” qismi “...terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan

yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga...” qismi bilan sintaktik ravishda bog‘lanib kelmoqda.

Jinoyatda ishtirochilik jinoyat sodir etishga ko‘maklashayotgan shaxsni yashirish, unga xizmatlar ko‘rsatishni qamrab olmaydi. Buning natijasi o‘laroq, qonun chiqaruvchi yuqoridagi bo‘shliqni va terrorizmning yuqori ijtimoiy xavfliligini inobatga olgan holda terrorizmni sodir etishga yordamlashayotgan shaxslarni moliyaviy mablag‘lar bilan ta‘minlash yoxud ularga xizmatlar ko‘rsatish harakatlarini ham kriminalizatsiya qilgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. X.Rustambayev,. Jinoyat huquqi, Darslik. Umumiy qism., Toshkent – “Ilm ziyo” – 2006 y., 87 b. (Kh. Rustambayev, Criminal Law, Textbook. General part., Tashkent – “Ilm ziya” – 2006, 87 p.)
2. Богомолов С.Ю. Финансирование терроризма: особенности содержания непосредственного объекта // Юридическая наука и практика: Вестник Нижегородской Академии МВД России. – 2015. – №4(32). – С. 216-220 (Bogomolov S.Yu. Financing of terrorism: features of the content of the direct object // Legal science and practice: Bulletin of the Nizhny Novgorod Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia. - 2015. - No. 4 (32). - P. 216-220)
3. Ibrohimov J.A.Terrorchilik xususiyatiga ega jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini: Yurid. fan. d-ri. ...dis. – Toshkent, 2023. – 79b (brohimov J.A. Criminal-legal and criminological aspects of crimes of a terrorist nature: Jurid. fan. dr. ...dis. – Tashkent, 2023. – 79p)
4. FATF (2015), Financing of the terrorist organisation Islamic State in Iraq and the Levant (ISIL), FATF, [www.fatf-gafi.org/topics/methodsandtrends/documents/financing-of-terrorist-organisationisil.html](http://www.fatf-gafi.org/topics/methodsandtrends/documents/financing-of-terrorist-organisationisil.html).
5. The Financial Action Task force (FATF). Guidance on criminalising terrorist financing (Recommendation 5). – 2016. Paragraph 51.
6. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации (постатейный) / Г.Н.Борзенков, А.В.Бриллиантов, А.В.Галахова [и др.] / отв. ред. В.М.Лебедев. 13-е изд., пер. и доп. – М., 2013; Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации (постатейный) / Ю.В.Грачева, Л.Д.Ермакова, Г.А.Есаков [и др.] / отв. ред. А.И.Рарог. 7-е изд., пер. и доп. – М., 2011. (Commentary on Ugolovnomu kodexu Rossiyskoy Federatsii (postateynny) / G.N.Borzenkov, A.V.Brilliantov, A.V.Galakhova [i dr.] / отв. ed. V. M. Lebedev. 13-e izd., per. i dop. - M., 2013; Kommentary k Ugolovnomu codexu Rossiyskoy Federatsii (postateynny) / Yu.V.Gracheva, L.D.Ermakova, G.A.Esakov [i dr.] / отв. ed. A. I. Rarog. 7-e izd., per. i dop. - M., 2011.)
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 27.11.2021-yildagi “Terrorizm va ekstremizmni moliyalashtirishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida” gi 32-sonli Plenum Qarori 3-bandi (Clause 3 of the Plenum Resolution No. 32 of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan dated 27.11.2021 “On certain issues of judicial practice in criminal cases related to the financing of terrorism and extremism”)
8. The Financial Action Task force (FATF). Guidance on criminalising terrorist financing (Recommendation 5). – 2016. Paragraph 19
9. Ивлиев С.М. Уголовно-правовые средства противодействия терроризму: Дисс. ... канд. юрид. наук. –М., 2008. – С. 161. (Ivliev S.M. Criminal-legal means of counteracting terrorism: Diss. ... Cand. of Law. – М., 2008. – P. 161)
10. Hawala. Article by Corporate Finance Institute Team. URL <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/wealth-management/hawala/>

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF LAW RESEARCH  
SPECIAL ISSUE-1

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000